


2021-yil 14-dekabr

“O`zkimyosanoat” AJ “Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi”da ishtirok etmoqda



Bugun “O`zekspomarkaz”da “Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi” o`z faoliyatini boshladi. Yarmarkada “O`zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati ham ishtirok etmoqda hamda tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar namoyish etilmoqda.

“Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi”ning birinchi kunida eksportbop va import o`rmini bosuvchi mahsulotlar ko`rgazmalari va ishlab chiqarish loyiha takliflari va sanoat kooperatsiyasini

yanada rivojlantirish maqsadida taqdimotlar namoyish etildi. Jumladan, kunning ikkinchi yarmida “O`zkiyosanoat” AJ tomonidan “Kimyo sanoatining mahalliyashtirish va sanoatda kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish dasturlari” yuzasidan taqdimoti o`tkazildi.

Shuningdek, ko`rgazmada namoyish etilgan va import qilinayotgan mahsulotlar namunalarini tadbirkorlik subyektlari tomonidan o`zlashtirish bo`yicha B2B shaklida muzokaralar olib borish va hamkorlik bitimlari tuzish jarayonlarida O`zbekiston Respublikasi Elektron kooperatsiya portali mutaxassislari tomonidan amaliy yordam ko`rsatilishi ko`zda tutilgan.

“Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi” joriy yilning 18 dekabriga qadar davom etadi.

“O`zkiyosanoat” AJ Matbuot xizmati



Uzkiyosanoat





source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/tarmoqlararo-sanoat-yarmarkasi>